



06-01

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

_____shahar (viloyat)

_____tuman “_____” nomli

_____maktabgacha ta'lim tashkiloti

PSIXOLOGI

_____ning

**YILLIK ISH REJASI VA
YILLIK HISOBOTI**





DIQQAT



Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan **OMONAT** qilib berildi.

Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham **OMONAT** hisoblanadi.

Ushbu **OMONAT**ni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Tijoriy maqsadda foydalanmang.

Internet va Veb-sayitlarga joylamang.

Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

Telegram orqali admin **Nabiyev Zokirjon**
bilan bog'lanish **91-328-88-38** yoki **Jek567**

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

_____shahar (viloyat)

_____tuman “_____” nomli

_____maktabgacha ta'lim tashkiloti

2025-2026-o'quv yili uchun

**OYLIK ISH REJA
VA YILLIK HISOBOT**

Psixolog:_____

Telefon raqami: _____

06-01. Yillik ish reja va yillik hisobot:

Quyidagi boʻlimlar kiritilgan:

1. Normativ-huquqiy hujjatlar
2. Oʻquv yili uchun yillik ish reja.
3. Trening ishlanmasi.
4. Yillik hisobot.

1. Normativ-huquqiy hujjatlar

Sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlarni lex.uz Oʻzbekiston Respublikasi qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi saytidan olib faoliyatda foydalanishi uchun yigʻma normativ-huquqiy hujjatlar jildini shakllantirib qoʻyadi.

2. Oʻquv yili uchun yillik ish reja

Oʻquv yili uchun moʻljallangan yillik ish reja namunasi Oʻzbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi huzuridagi Oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish hamda psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilib, rasmiy xat asosida hududlarga yuboriladi.

Maktabgacha taʼlim tashkiloti psixologi tomonidan har bir oʻquv yili uchun belgilangan namunaga asosan yillik ish rejasi tuziladi va tashkilot direktori tomonidan tasdiqlanadi.

“TASDIQLAYMAN”
_____viloyat _____tumani
(shahar) ____-sonli davlat maktabgacha
ta’lim tashkiloti direktori

_____“__” _____20__-yil

_____viloyat _____tumani (shahar) ____-sonli
maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining 20__- 20__ o‘quv yili uchun

YILLIK ISH REJASI

T/r	Amalga oshiriladigan ishlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Ijro uchun mas’ul
Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish				
1.	Maktabga tayyorlov guruhida ertalabki badantarbiya va bolalar bilan yakka ishlash faoliyatini kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Sentabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
2.	Kichik guruhlarda kunning ikkinchi yarmini kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Sentabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
3.	Katta guruhda ertalabki qabulni kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Oktabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
4.	O‘rta guruhlarda kunning birinchi yarmidagi sayrdagi faoliyatni kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Oktabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
5.	O‘rta guruhda bolalar yuvinishini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
6.	Maktabga tayyorlov guruhda ovqatlanish jarayonini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
7.	O‘rta va kichik guruhida ertalabki sayrni kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)

8.	Katta guruhda mehnat faoliyatini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
9.	Katta guruhda rivojlantirish markazlarida tashkil etilgan rasm faoliyatini kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2026-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
10.	O‘rta guruhda rivojlantirish markazlaridagi loy ishi jarayonni kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2026-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
11.	Kichik guruhda uyquni kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2026-yil Fevral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
12.	Katta guruhda mehnat faoliyatini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2026-yil Favral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
13.	O‘rta guruhlarda o‘yin faoliyatini kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish.	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
14.	Maktabga tayyorlov guruhida kunning ikkinchi yarmidagi ta’lim-tarbiya jarayonini kuzatish.	1. Tahlil olib borish individual tarzda zarur maslahatlarni berish	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
15.	Maktabga tayyorlov guruhida ertalabki suhbat jarayonini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish	2026-yil Aprel	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
16.	Kichik guruhda kechki sayrni kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish	2026-yil Aprel	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
17.	O‘rta guruhlarda kunning ikkinchi yarmini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
18.	Katta guruhlarda ovqatlanish jarayonini kuzatish.	1. Individual tarzda zarur maslahatlarni berish	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
19.	Yillik hisobot tayyorlash	1. Ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)

Tashkiliy-metodik ishlar				
1.	“Metodik mahorat soat”larida pedagog xodimlar bilan ishlash.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakllantirish.	2025-yil Sentabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
2.	Tanlangan guruhlarda mavzuli nazorat o‘tkazish.	“Pedagoglarning ish hujjatlari va ularni yuritilishi” yuzasidan o‘tkazilgan mavzuli nazorat yig‘ma jildini shakllantirish	2025-yil Sentabr 2026-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
3.	“Metodik mahorat soat”larida pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahatlar berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakllantirish.	2025-yil Oktabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
4.	Mahorat darslari (ochiq mashg‘ulot direktor yillik rejasi asosida)ni o‘tkazish.	Tahlil olib borish bayyonlashtirish	Yil davomida	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
5.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagoglarga metodik ko‘rsatmalar berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakllantirish.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
6.	Qiyosiy nazorat o‘tkazish.	“Mashg‘ulotlarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi” va nazorat yig‘ma jild shakllantirish	2025-yil Noyabr 2026-yil Aprel	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
7.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakllantirish.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
8.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish,	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish.	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)

	metodik maslahat berish.	2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakillantirish.		
9.	Ish hujjatlarni yuritilishi bo‘yicha pedagog xodimlar uchun amaliy seminarlar tashkil etish.	Amaliy seminarlar tashkil etish yig‘ma jild shakillantirish	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
10.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakillantirish.	2025-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
11.	Pedagoglar o‘rtasida so‘rovnoma (Sizlarni qanday mavzulardagi seminarlar qiziqtiradi.....).	1. Elektron shaklda so‘rovnoma o‘tkazish.	2025-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
12.	Frontal nazorat o‘tkazish.	1. Maktabga tayyorlov guruhlarida “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etilish. 2. Nazorat yig‘ma jild shakillantirish.	2025-yil Sentabr-noyabr 2026-yil Fevral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
13.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakillantirish.	2026-yil Favral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
14.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig‘ma jildlar shakillantirish. 3. Har chorakda o‘tkaziladigan pedagogik kengashlarda esa natijalar yuzasidan hisobotlar taqdim etish.	2026-yil Favral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)
15.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish,	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish.	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)

	metodik maslahat berish.	2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig'ma jildlar shakillantirish.		
16.	Amaliy seminar.	1. Pedagoglar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish (Qanday mavzularda seminar sizlar uchun qiziq.....). 2. So'rovnoma natijasidan kelib chiqib seminar tashkil etish.	2026-yil Mart	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
17.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig'ma jildlar shakillantirish.	2026-yil Aprel	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
18.	Ilg'or ish tajribalarni o'rganish, ommalashtirish, metodik ko'rsatma va tavsiyalar berish.	1. O'rganish natijalari yuzasidan maruza (taqdimot).	Yil davomida	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
19.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig'ma jildlar shakillantirish.	2026-yil May	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
20.	“Metodik mahorat soatlari”da pedagog xodimlar faoliyatini kuzatish, metodik maslahat berish.	1. “Metodik mahorat kuni”da olingan bilimlarni pedagoglarga yetkazish. 2. Belgilangan tartibda oy davomida olib borish yig'ma jildlar shakillantirish. 3. Har chorakda o'tkaziladigan pedagogik kengashlarda esa natijalar yuzasidan hisobotlar taqdim etish.	2026-yil May	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
21.	Yillik hisobot tayyorlash.	1. Yil davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan umumiy hisobot tayyorlash.	2026-yil May	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh)
Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ko'rik tanlovlar va sport musobaqalari				
1.	“O'zbekiston – mening Vatanim” mavzusida tadbir tashkil etish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkil etish.	2025-yil Sentabr	Direktor o'rinbosari (F.I.Sh), Musiqi rahbari (F.I.Sh)

2.	“Mening oilam – mening mahallam” ko‘rik-tanlovini o‘tkazish.	1. Ko‘rik-tanlov nizomini ishlab chiqish. 2. Nizom asosida ko‘rik-tanlovni tashkil etish.	2025-yil Sentabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
3.	“Ustozimga atab” qo‘l ishlari ko‘rgazmasini tashkil etish.	1. Qo‘l ishlari ko‘rgazmasi ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ssenariy asosida ko‘rgazma tashkil etish.	2025-yil Oktabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
4.	“Mehrjon” hosil bayramini o‘tkazish.	1. Bayram ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ssenariy asosida barcha guruhlarda bayramlarni tashkil etish.	2025-yil Oktabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
5.	“Ehtiyotkor piyoda!” haftaligini tashkil etish.	1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida yo‘l harakati qoidalarini o‘rgatish uchun mo‘ljallangan namunali gilamchalarda amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish. 2. Haftalikka YPX hodimlari ishtirokini ta‘minlash.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
6.	“Vatanimning bayrog‘i!” bayram tadbiri.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir tashkil etish.	2025-yil Noyabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
7.	“Mening huquqlarim” mavzusida chellenjlar o‘tkazish.	1. Tayyorlov guruhlarida chellenj o‘tkazish tartibini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tartib asosida chellenjlar o‘tkazish.	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
8.	“Yangi yil mo‘jizalari” bayramini o‘tkazish.	1. Bayram ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ssenariy asosida barcha guruhlarda bayramlarni tashkil etish.	2025-yil Dekabr	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
9.	“Men ham askar bo‘laman!” nomli tadbir o‘tkazish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir tashkil etish.	2026-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
10.	“Sport – salomatlik garovi” nomli sport musobaqasini o‘tkazish.	1. Musobaqa nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ishlab chiqilgan nizom asosida musobaqa	2026-yil Yanvar	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi (F.I.Sh)

		tshkil etish.		
11.	“Buyuk ajdodlarimiz” namli tadbirlar o‘tkazish.	1. Tadbirlar ssenariysini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Ishlab chiqilgan ssenariylar asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish. 3. Tadbirlar doirasida “Alisher va mehmon chumoli”, “Dovyurak Alisher”, “Qovun isi” hikoyalarini sahnalashtirish.	2026-yil Favral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
12.	“Jajji kitobxon haftaligi”ni tashkil etish.	1. Kitobxonlik haftaligini tashkil etish bo‘yicha tartib ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan tartib bo‘yicha tayyorlov hamda katta guruh tarbiyalanuvchilari ota-onalari ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish. 3. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazish.	2026-yil Favral	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
13.	“Onajonlar kuni” bayramini o‘tkazish.	1. Bayram ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ssenariy asosida barcha guruhlarda bayramlarni tashkil etish.	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
14.	“Navro‘zi olam” nomli ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish.	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
15.	“Bola sog‘ligi-tuman boyligi” sog‘lomlashtiruvchi yurishlar tadbirini tashkil etish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish.	2026-yil Mart	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi (F.I.Sh)
16.	“Bizning Temur bobomiz” nomli tadbir o‘tkazish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish.	2026-yil Aprel	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musika rahbari (F.I.Sh)
17.	“Ochiq havoda milliy sport o‘yinlari” tadbirini o‘tkazish.	1. Tadbir ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etish.	2026-yil Aprel	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Jismoniy tarbiya yo‘riqchisi (F.I.Sh)

18.	“Xotira va qadrlash” kuni munosabati bilan ochiq faoliyatlar tashkil etish.	1. Guruhlar kesimida ochiq faoliyatlar ishlanmasini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ishlanmalar asosida ochiq faoliyatlar tashkil etish.	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Guruh tarbiyachilari (F.I.Sh)
19.	“Xayr bog‘cha, Salom maktab” musiqiy bayram dasturini tashkil etish.	1. Musiqiy bayram dasturi ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida tayyorlov guruhlarida musiqiy bayram dasturini tashkil etish.	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musiqqa rahbari (F.I.Sh)
20.	1-iyun “Xalqaro bolalarni himoya qilish” nomli musiqiy bayram dasturini tashkil etish.	1. Musiqiy bayram dasturi ssenariysini ishlab chiqish. 2. Ishlab chiqilgan ssenariy asosida barcha guruhlarida musiqiy bayram dasturini tashkil etish.	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh), Musiqqa rahbari (F.I.Sh)
21.	Yillik hisobot	Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, ko‘rik tanlovlar va sport musobaqalari ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar	2026-yil May	Direktor o‘rinbosari (F.I.Sh)

“TASDIQLAYMAN”
_____-MTT direktori

**__-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologining
 tayyorlov guruhlar uchun
 ISH REJASI**

Oy	Hafta	Faoliyat mavzusi	Vaqt	Kuni
Sentabr	1-hafta	“Baroqvoy uyalib qoldi		
	2-hafta	Dengiz to‘lqinlanyapti		
	3-hafta	Uchburchaklar		
	4-hafta	Rasmdagi xatolarni top		
Oktabr	1-hafta	To‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri		
	2-hafta	Agar		
	3-hafta	Mening bolam		
	4-hafta	Bola bilan intervyu		
Noyabr	1-hafta	To‘rtinchisi ortiqcha		
	2-hafta	Xayrixohlik		
	3-hafta	Suratlar		
	4-hafta	Ranglar terapiyasi		
Dekabr	1-hafta	Kamalak yasa		
	2-hafta	Men xursand bolaman		
	3-hafta	Oyisini xursand qilgan mushuk		
	4-hafta	Kulmaydigan malika		

Yanvar	1-hafta	Menda nima o'zgardi		
	2-hafta	Nima o'zgardi		
	3-hafta	Nima noto'g'ri		
	4-hafta	So'zni ayt		
Fevral	1-hafta	Gap tuz		
	2-hafta	Sehrli sandiqcha		
	3-hafta	Nima ortiqcha		
	4-hafta	Kimga nima yetmayapti		
Mart	1-hafta	Rangiga qarab ajrat		
	2-hafta	''Labirint bo'y!ab o't		
	3-hafta	Figuralarni tanib ol		
	4-hafta	O'nta so'zni eslab qol		
Aprel	1-hafta	Uy-daraxt-odam		
	2-hafta	Kecha va bugun		
	3-hafta	Har bir kun qiziqarli		
	4-hafta	Qisqacha o'zim haqimda		
May	1-hafta	Bolaga qanday yordam beramiz		
	2-hafta	Tovush egasini top		
	3-hafta	To'rtinchisi ortiqcha		
	4-hafta	O'zing tugat		

**___-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining
katta guruhlar uchun
ISH REJASI**

Oy	Hafta	Faoliyat mavzusi	Vaqt	Kuni
Sentabr	1-hafta	Gapiring!		
	2-hafta	To'pni uzatish		
	3-hafta	Farqni toping		
	4-hafta	O'zgaruvchilar		
Oktabr	1-hafta	Tomoshabinlar		
	2-hafta	Taqiqlangan harakat		
	3-hafta	Rasmdagi xatolarni top		
	4-hafta	Mehribon hayvon		
Noyabr	1-hafta	To'rtinchisi ortiqcha		
	2-hafta	Kamalak yasa		
	3-hafta	O'zing tugat		
	4-hafta	Kecha va bugun		
Dekabr	1-hafta	Rangiga qarab ajrat		
	2-hafta	Sehrli sandiqcha		
	3-hafta	Futbol		
	4-hafta	Qarsak		
Yanvar	1-hafta	Baliq ovi		
	2-hafta	Oyna ortidan so'zlashish		
	3-hafta	Sherigingni tanla		
	4-hafta	Kim kuchliroq yaxshi ko'radi		

Fevral	1-hafta	O‘yinchoqni so‘rab ol		
	2-hafta	Men sherman		
	3-hafta	Maqtoqlar		
	4-hafta	Ho‘l bo‘lgan bola		
Mart	1-hafta	Quyosh muhabbati” mashqi		
	2-hafta	Ko'zdan ko'z		
	3-hafta	Farqni toping		
	4-hafta	Ta‘miga ko‘ra top		
Aprel	1-hafta	Uchta predmet nomi		
	2-hafta	Mening kelajagim		
	3-hafta	Ajoyib qo‘g‘irchoq		
	4-hafta	Qanday sevishimni ko‘rsataman		
May	1-hafta	Ko‘zgu		
	2-hafta	SHamol esyapti		
	3-hafta	Marjon		
	4-hafta	Men xursand bomaman...		

**___-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining
o'rta guruhlar uchun
ISH REJASI**

Oy	Hafta	Faoliyat mavzusi	Vaqt	Kuni
Sentabr	1-hafta	Sehrli tayoqcha		
	2-hafta	“Ruxsat beraman - taqiqlavman		
	3-hafta	Quyosh muhabbati		
	4-hafta	Quyoning kun tartibini qanday tuzasan		
Oktabr	1-hafta	Ta'miga ko'ra top		
	2-hafta	Uchta predmet nomi		
	3-hafta	Tez javobini top		
	4-hafta	Qarama-qarshi		
Noyabr	1-hafta	Kasblarni o'rganamiz		
	2-hafta	Oyim meni nima uchun yaxshi ko'radi		
	3-hafta	”Men sherman		
	4-hafta	Maqtoqlar		
Dekabr	1-hafta	Ho'l bo'lgan bola		
	2-hafta	Har bir kun qiziqarli		
	3-hafta	Quyosh muhabbati		
	4-hafta	“Ruxsat beraman - taqiqlavman		
Yanvar	1-hafta	O'yinchoqni so'rab ol		
	2-hafta	Sherigingni tanla		
	3-hafta	Harakatni uzatib yubor		
	4-hafta	Ayiq polvon va asalarilar		

Fevral	1-hafta	Gaplashuvchi ob'ektlar		
	2-hafta	Men va mening kayfiyatim		
	3-hafta	Mehribon hayvon		
	4-hafta	Quyoshli quyon		
Mart	1-hafta	Ajdaho dumini tishlaydi		
	2-hafta	Qarsaklar		
	3-hafta	O'yinchoq so'rang		
	4-hafta	Yaxshi do'st		
Aprel	1-hafta	Sahnadagi tuyg'ular		
	2-hafta	Sehrli stul		
	3-hafta	Ism qo'ng'iroq qilish		
	4-hafta	Tuh-tibi-duh		
May	1-hafta	O'yinchoq so'rang		
	2-hafta	Ko'zdan ko'z		
	3-hafta	Farqni toping		
	4-hafta	Qichqiriqlar - pichirlashlar - jim		

**___-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologining
kichik guruhlar uchun
ISH REJASI**

Oy	Hafta	Faoliyat mavzusi	Vaqt	Kuni
Sentabr	1-hafta	Diqqatni tekshirish.		
	2-hafta	Xotirani tekshirish.		
	3-hafta	Nutqni tekshirish		
	4-hafta	Idrokni tekshirish.		
Oktabr	1-hafta	Fikrlashini tekshirish		
	2-hafta	Oiladagi ichki munosabatlarni tekshirish.		
	3-hafta	Mening ismim		
	4-hafta	Oy		
Noyabr	1-hafta	Katta daraxt		
	2-hafta	Tulkicha qo'rqyapti		
	3-hafta	Mazali konfetlar		
	4-hafta	Sekin-sekin		
Dekabr	1-hafta	Oqko'ngil hayvonlar		
	2-hafta	Bolalikka qaytamiz		
	3-hafta	Sehrli tayoqcha		
	4-hafta	Diqqatni tekshirish.		
Yanvar	1-hafta	Sovg'a		
	2-hafta	Ho'l bo'lgan bola		
	3-hafta	Quyosh muhabbati		
	4-hafta	Ruxsat beraman - taqiqlavman		

Fevral	1-hafta	Menga qanday yaxshi		
	2-hafta	Qahramon fe'lini o'zgartir		
	3-hafta	Ajoyib qo'g'irchoq		
	4-hafta	Farzandingiz muloqotga kirishuvchanmi		
Mart	1-hafta	Bolani tanqid qilish mumkinmi		
	2-hafta	Baroqvoy uyalib qoldi		
	3-hafta	Dengiz to'lqinlanyapti		
	4-hafta	Uchburchaklar		
Aprel	1-hafta	Rasmdagi xatolarni top		
	2-hafta	To'g'rimi yoki noto'g'ri		
	3-hafta	Idrok va tafakkurning rivojlanganlik darajasini aniqlash		
	4-hafta	Bola bilan intervyu		
May	1-hafta	To'rtinchisi ortiqcha		
	2-hafta	Yetmayotgan shaklni top		
	3-hafta	Xayrixohlik		
	4-hafta	Figuralar		

3. Trening ishlanmasi

MTT xodimlari uchun o'quv yili davomida o'tkaziladigan trening

ishlanmasi tuzilmasi

I. Kirish qismi:

Tanishuv: dastlab trener o'zini tanishtiradi, so'ng ishtirokchilar qisqacha o'zlari haqida ma'lumot beradilar.

Qoidalar va reglament: xulq-atvor hamda tashkiliy jihatlar bo'yicha kelishib olinadi.

Kutuvlarni aniqlash: mavzu yuzasidan guruhning aniq ehtiyoj va talablarini bilib olish.

II. Nazariy qism (*treningning 40% gacha*):

Ma'lumotlar qismlarga bo'linib, porsiyalab taqdim etiladi.

Murakkab tushunchalar sodda tilda izohlanadi.

Vizual vositalar (taqdimot, tarqatma materiallar, flippchart)dan foydalaniladi.

Faqat amaliyotda qo'llash mumkin bo'lgan bilimlar beriladi.

III. Amaliyot qismi (*treningning 60% gacha*):

Har bir nazariy blokdan keyin mashqlar (muzqaymoq o'yinlari, energayzerlar) bajariladi.

Keyslar – real hayotdagi murakkab vaziyatlar asosida ishlab chiqiladi.

Trener jarayonga faqat zarur hollarda aralashadi.

Ishtirokchilarga imkon qadar ko'proq feedback (qayta aloqa) beriladi.

IV. Yakuniy bosqich:

Olingan bilim va ko'nikmalar umumlashtiriladi.

Ishtirokchilardan ular uchun eng muhim bo'lgan jihatlar so'raladi.

Kutuvlar tahlil qilinib, barcha savollarga javob beriladi.

Pedagogning yillik hisoboti

I. MTT (guruh)ning umumiy tavsifi:

1. MTT (guruh)dagi bolalar soni: _____

Ulardan: o‘g‘il bolalar _____ va qiz bolalar _____.

2. MTTda bolalar davomati (%) _____

3. Muhit tavsifi: ijobiy, salbiy

II. Joriy o‘quv yilining maqsad va vazifalari.

O‘quv yiliga asosiy vazifalar: O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni, “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini”dan kelib chiqqan holda pedagog kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish, qayta tayyorlash, malakasini oshirishda yangicha yondashuvlarni joriy etish orqali maktabgacha ta’lim tizimi pedagog xodimlarining zamonaviy pedagogik va boshqaruvchanlik kompetensiyalari amalga oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv orqali boshlang‘ich matematik tushunchalar va chet tillarini o‘rgatish shakllari va usullarini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning shaxsiyatini rivojlantirish va tarbiyalashda, professional yordam ko‘rsatishda oila, mahalla, maktab bilan hamkorlik qilish hamda ularni maktabgacha ta’lim tashkilotlarini boshqarish va yuqumli kasalliklarning oldini olish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 30-sentyabrdagi PF-5198-son Farmoniga, “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 2017-yil 30-sentyabragi PQ-3305-son qaroriga va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-iyuldagi 391-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari to‘g‘risidagi nizom, shuningdek “O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari” va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi, O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli qarori

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi maktabgacha ta’lim agentligining 2025-yil 29-avgustdagi 323-son buyruqlari asosida ta’lim–tarbiya ishlarini amalga oshirish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishda belgilangan reja asosida barcha tashkiliy-pedagogik ishlarini bajarilishi ta’minlash, o‘quv yili davomida ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligi oshirish, tarbiyachilarning bilim salohiyatini yanada oshirish va o‘zaro tajriba almashish, seminar-treninglar o‘quv faoliyatlari ochiq faoliyatlar tashkil etib borish.

Tibbiy ko‘riklar o‘tkazildi

III. O‘tkazilgan tadbirlar tavsifi

O‘tkazilgan bayram tadbirlar hisoboti

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi munosabati bilan
“_____” shiori

ostida tadbir o‘tkazildi. Unda ota onalar, MTT xodimlar va tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar. O‘quvchilarga davlatimiz mustaqilligining 34 yillik davrida iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy–ma’naviy, ta’lim sohalari yo‘nalishida amalga oshirilib kelinayotgan keng qamrovli islohatlar to‘g‘risida gapirab o‘tdi. Ularning tub mohiyati tinglovichlar ongi va qalbiga singib o‘tildi. Faoliyat jarayonida o‘quvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirish ularni mustaqil firklashlarini boyitish maqsadida mavzuga oid slayd, buklet, albom va rasmlar, ko‘rgazmali

vositalaridan keng foydalanildi. Faoliyat jarayonida tarbiyalanuvchilarda vatanparvarlik, o'z yurtiga sadoqat tuyg'ularini shakillantirish maqsadida Vatanni tarannum etuvchi she'rlar, buyuk ajdodlariz ma'naviy meroslaridan namunalar keltirildi.

1-oktyabr "Ustoz va murabbiylar" kuni munosabati bilan bir qancha tadbirlar o'tkazildi, jumladan katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari o'rtasida "Ustozlar sizga ta'zim" nomli tadbir bo'lib o'tdi. Tadbirni MTT rahbari ochdi, u o'z so'zida MTTda faoliyat yuritayotgan barcha MTT xodimlarini bayram bilan qizg'in muborakbod etdi, va ustozlarga quyidagicha ta'rif berib o'tdi.

Ustoz... O'qituvchi ... Muallim ... Murabbiy ... Tarbiyachi... bu so'zlar bir-birini aynan takrorlamasada, ma'no – moxiyati bir-biriga yaqin, bir-birining takrori. Zamirida esa olam-olam ma'no mujassam.

Eng avvalo yozishni va uning qanday o'qilishini o'rgatgan inson kichkintoy bolajon uchun ustoz-murabbiy emasmi?

Shundan so'ng tadbir ochiq deb e'lon qilindi.

Tadbirda ustozni madx etib she'rlar, qo'shiqlar ijro etildi. Tadbir ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi.

Shu kuni MTTda tarbiyalanuvchilar o'rtasida "Ustozga extirom" nomli tadbir bo'lib o'tdi. Guruhlar o'rtasida rasmlar tanlovi o'tkazildi. MTTning faxriy xodimlari bilan uchrashuvlar uyushtirildi.

Bayram ko'tarinki kayfiyatda o'tkazildi

2025-yil 21-oktyabr kuni O'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 35 yilligiga bag'ishlab "O'zbek tilim-ona tilim" mavzusida musiqa rahbari rahbarligida bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirda MTT rahbari, guruh tarbiyachilari, guruh tarbiyalanuvchilar va ota-onalar ishtirok etdilar. Musiqa rahbari rahbarligida katta va tayyorlov guruhi

tarbiyalanuvchilari o‘zlarining ona tiliga bag‘ishlangan she’rlari, ashulalari va donolarning hikmatli so‘zlari, maqollari va sahna ko‘rinishlari bilan ishtirok etib barchani hushnud etdilar. Bayramda “Til –dil ko‘zgusi” mavzusida o‘tkazilgan rasmlar tanlovi g‘oliblariga esdalik sovg‘alar va faxriy yorliqlar topshirildi. Jajji qizaloqlar tomonidan ijro etilgan raqslar tadbirga yanada ko‘tarinkilik qo‘shdi

18-noyabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i qabul qilingan kunning 34 yilligiga bag‘ishlab 2025-yil 18-noyabr soat 12:00 da tarbiyalanuvchi va

MTT xodimlari ishtirokida “Davlatimiz bayrog‘i – mustaqilligimiz ramzidir” shiori ostida tadbir bo‘lib o‘tdi. Tantanali tadbirga ota-onalar, MFY hodimlari taklif etildi. Tadbirda MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilari ishtirok etdilar.

Tadbirni MTT rahbari olib bordi. U o‘z tabrigida MTT jamoasi va tarbiyalanuvchilarni 18-noyabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog‘i qabul qilingan kunning 34 yilligi bilan tabriklab, faoliyatlarni yaxshi o‘zlashtirishlari, buning uchun hozirgi zamonaviy bilimga ega bo‘lishlarini tilab qoldi.

MTTga tashrif buyurgan ota-onalar va mehmonlar tarbiyalanuvchilarga bayram munosabati bilan davlat ramzlarini sevish uni ardoqlash, vatanparvarlik haqida o‘z fikrlarini bayon qilishdi.

MTTning katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari Davlat Bayrog‘i qabul qilingan kunning 34 yilligi atab rasmlar tanlovlari o‘tkazildi. MTTning musiqa rahbari, tarbiyalanuvchilar tomonidan tayyorlagan bayram dasturini namoyish etishdi.

Tadbir tarbiyalanuvchilarni davlat ramzlariga muxabbat ruhida tarbiyalashda, davlat ramzlarini sevish, ardoqlashga undadi.

Tadbir ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazildi

2025-yil 1-dekabr “Butunjaxon OITS ga qarshi kurashish kuni”

munosabati bilan MTT hamshirsi rahbarligida katta va tayyorlov guruhlar o‘rtasida «OITS – umr zavoli» mavzusida rasm chizish tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Bundan tashqari MTTda «OITSsiz kelajak sari» deb nomlangan katta va tayyorlov guruhlar o‘rtasida tadbir bo‘lib o‘tdi, tadbirda barcha katta va tayyorlov guruhlar faol qatnashdi, «OITSga o‘rin yo‘q» deb nomlangan tarbiyalanuvchilar o‘rtasida rasmlar ko‘rik-tanlovi bo‘lib o‘tdi, har bir tarbiyalanuvchilarning chizgan OITS kasalligi haqidagi rasmlari rag‘batlantirildi.

MTTda tarbiyalanuvchilar o‘rtasida «OITS umr zavoli» mavzusida davra suhbat bo‘lib o‘tdi. Ushbu davra suhbatiga uchastka bosh vrachi taklif etilib, tarbiyalanuvchilarga OITS kasalligi va uning oqibatlari haqida kengroq tushuncha berdi.

1-dekabr “Butunjaxon OITS ga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan MTTda burchak tashkil etildi. Ushbu burchakda MTT tarbiyalanuvchilari tomonidan tayyorlangan rasmlar tanlovi o‘tkazildi.

1-dekabr “Butunjaxon OITS ga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan “OITSsiz kelajak sari” mavzusida tadbir o‘tkazildi.

Dunyo hamjamiyatida insonni e‘zozlash, xurmatlash va inson bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida ma’lum bir bayram sanalari belgilangan. Ulardan biri, **“3 – dekabr xalqaro nogironlar kuni”** bo‘lib, bu kunda ma’lum bir sabablar bilan nogiron tug‘ilgan yoki nogiron bo‘lib qolgan insonlar holidan xabar olinadi. Bu ham insoniylikning bir belgisidir.

MTTda 10 dekabr O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kunning 33 yilligiga bag‘ishlab 2025-yil 10 dekabr soat 11:00 da tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar ishtirokida “Davlatimiz ramzlari-faxrimiz g‘ururimiz” shiori ostida tadbir bo‘lib o‘tdi. Tantanali tadbirga ota-onalar, MFY hodimlari taklif etildi.

Tadbirni MTT mudirasi ochdi. U o‘z tabrigida MTT jamoasi va tarbiyalanuvchilarni 10-dekabr O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi qabul qilingan kunning 33 yilligi bilan tabriklab, madhiya muallifi A.Oripov xotirasiga chuqur ehtirom bildirdi. O‘quvchilarni mustaqil O‘zbekistonning sadoqatli, vatanparvar va bilimdon farzandlari bo‘lishini tiladi.

MTTga tashrif buyurgan ota-onalar va mehmonlar tarbiyalanuvchilarga bayram munosabati bilan davlat ramzlarini sevish uni ardoqlash, vatanparvarlik xaqida o‘z fikrlarini bayon qilishdi.

MTTning katta guruh va maktabga tayyorlov guruhlari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kunning 33 yilligi munosabati bilan rasmlar tanlovlari o‘tkazildi. MTT musika rahbari tarbiyalanuvchilar tomonidan tayyorlagan bayram dasturini namoyish etdi.

Tadbir tarbiyalanuvchilarni davlat ramzlariga muhabbat ruhida tarbiyalashda, davlat ramzlarini sevish, ardoqlashga undadi.

Tadbir ko‘tarinki kayfiyatda o‘tkazildi

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 34 yilligi munosabati bilan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Avvalo shuni aytish kerakki, asosiy qomusimiz mustaqillik yillarida O‘zbekiston taraqqiyotining mustahkam huquqiy poydevoriga aylandi. Shu yillar davomida qaysi sohada qanday yutuqlarga erishgan bo‘lmaylik, bularning

barchasiga Konstitutsiyaning hayotbahsh normalarini amalga tadbqiq etish natijasida erishildi.

Tadbir 2025-yil 7-dekabr kuni bo‘lib o‘tdi. Unga MTT xodimlari, ota – onalar va n tarbiyalanuvchilar ishtirok etdi. Tadbirni MTT rahbari ochib barchani Konstitutsiyamizni 34 yilligi bilan barcha tadbir ishtirokchilarini tabrikladi. MTTda “Konstitutsiya-baxtimiz poydevori” “Konstitutsiya saboqlari” mavzusida guruh tarbiyachilari boshchiligida tadbir tashkil etildi. «Konstitutsiyamiz xuquq va erkinligimiz kafolati» shiori ostida huquqiy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar bo‘lib o‘tdi. MTTda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmun – mohiyatini va bayram shukuxini aks ettiruvchi devoriy gazetalar va rasmlar tanlovi katta va MTTga tayyorlov guruhlar o‘rtasida o‘tkazildi.

Tadbirda foal qatnashgan tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar MTT ma’muriyati hamda homiylar tomonidan maqtoov yorlig‘lari va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

MTT xodimlari va tarbiyalanuvchilari bilan birga “Yangi yil” tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbir munosabati bilan MTT xovlisi va xonalar bayramona bezatildi, rasmlar tanlovi o‘tkazildi. Tantanali tadbirga ota-onalar, tuman MMTB vakillaridan taklif etildi.

Tadbirni MTT direktori ochdi. U o‘z tabrigida tarbiyalanuvchilarini yangi yilda omadlar tiladi va yaxshi baholarga o‘qishlari buning uchun hozirgi zamonaviy bilimga ega bo‘lishlarini tilab qoldi. Musiqa rahbari so‘zga chiqib, tarbiyalanuvchilarga omadlar tilab Yangi yilni yaxshi kutib olishlari, tunda ko‘chaga chiqmasliklari, pirotexnika vositalaridan foydalanmasliklari to‘g‘risida yana bir bor ogohlantirib o‘tdi.

MTTga tashrif buyurgan ota-onalar, tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarni Yangi yil bilan tabriklashdi.

Shundan so‘ng guruhlarning "Yangi yil" bayram dasturi namoyish etildi.

Tadbirda Qorbobo, Qorqiz va Ertak qaxramonlarini chiqishlari tarbiyalanuvchilarda katta taassurot qoldirdi. Yangi yil bayramida Qorbobo, Qorqiz va ertak qaxramonlari bilan birga she‘r, qo‘shiq va raqslar ijro etildi. Tarbiyalanuvchilar ham Qorbobo va Qorqiz va yangi yil bayramiga atab she‘r va qo‘shiqlar aytib berdilar. Tarbiyalanuvchilar tadbirda sho‘x musiqaga raqs tushdilar. Yangi yil bayram tadbirida tarbiyalanuvchilar juda mamnun bo‘ldilar. Bundan tashqari katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarini tayyorlagan ko‘ngilochar xajviya she‘rlari, o‘yin-kulgulari bilan tadbir ishtirokchilariga bayram tuxfasi ulashildi.

Tadbir yong‘in xavfsizligi va texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda MTT xonasida o‘tkazildi

2026-yil 14-yanvar kuni soat 12:00 da O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganligining 33-yilligi va **14 yanvar – “Vatan himoyachilari kuni”ga** munosabati bilan tarbiyachi va guruhlar ishtirokida “Biz kichik posbonlarmiz!” shiori ostida tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Tantanali tadbirga ota-onalar, MFY xodimlari, zaxiradagi harbiy xizmatchilar va ota-onalari taklif etildi.

Tadbirni MTT rahbari kirish so‘zi bilan ochib, tadbir ishtirokchilarini «Vatan himoyachilari kuni» bilan tabriklab, faoliyatlarni yaxshi o‘zlashtirishlari, buning uchun hozirgi zamonaviy bilimga ega bo‘lishlarini tilab qoldi.

Katta va MTTga tayyorlov guruhlari ishtirokida Vatanni sevish, uni ardoqlash, vatanparvarlik haqida turli xil ko‘rinishlarini tadbir ishtirokchilariga namoyish etishdi.

O‘tkazilgan tadbir tarbiyalanuvchi yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy armiyamizga hurmat ruhida tarbiyalanishlarida muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

MTTgacha ta’lim tashkilotida 9-fevral kuni buyuk mutafakkir, davlat arbobi, g‘azal mulkning sultoni shoir **bobomiz Mir Alisher Navoiy tavallud topgan kunning 585 yilligi yuqori saviyada o‘tkazildi.**

MTTning tayyorlov va katta guruhida ‘Navoiyga ta’zim” mavzusida bayram tadbiri o‘tkazildi. O‘rta guruhlarda esa, ochiq faoliyatlar o‘tkazilib, bolalarga buyuk bobomizning xayoti va ijodi haqida tushunchalar berildi, Bayram tadbirida tarbiyalanuvchilar bobomiz A.Navoiyning g‘azal, ruboiy va hikmatli so‘zlaridan aytib, bayram ishtirokchilarini xursand etdilar.

O‘tkazilgan bayram tadbiri MTT-oila-mahalla hamkorligida tashkil etildi.

Tadbirda MTT xududida joylashgan mahalla fuqarolar yig‘ini raisi, hamda ota-onalar ishtirok etdilar.

Tarbiyalanuvchilar tomonidan aytilgan she’rlar, ijro etilgan o‘zbek milliy raqs va laparlari barcha tadbir ishtirokchilarini mamnun etdi.

Bayram so‘ngida MTT rahbari so‘z olib, o‘tkazilgan tadbir haqida o‘z fikr-muloxazalarini bildirdi. Ota-onalar so‘z olib bayram tadbirini juda chiroyli tashkil etilgani, bolalarning biyron tillarda g‘azal va ruboiylarni aytib berganliklarini ko‘rib xursand bo‘lishganini bildirishdi.

MTT xovlisi bayramona bezatilgan. **Saxna to‘rida bobomiz Z.M.Bobur surati.**

Tadbirda MFY xodimlari, MTT xodimlari, MTTning tarbiyalanuvchilari ishtirok etdilar.

Bayram tadbirini MTT rahbari ochib berdi. Davraga tadbir ishtirokchilarini taklif etdi.

Davraga bayram ishtirokchilari kirib keldi.

Dastlab Bobomiz Z.M.Bobur ruboiylaridan va gʻazallaridan oʻqib berdilar. Katta guruh tarbiyachisi U.Rasulova bobomizning bosib oʻtgan yoʻllari haqida fahrlansa arzigudek ishlari haqida maʼruza qildi.

Buyuk shoirning 542 yilligini bagʻishlangan “Bobur gʻazallarida yurt sogʻinchi” mavzusida adabiy tadbir oʻtkazildi.

Tayyorlov guruh tarbiyachisi rahbarligida “Boburnoma – tarixiy meʼmuar asar” mavzusida kitobxonlar anjumani oʻtkazildi.

Katta va MTTga tayyorlov guruhi oʻrtasida Zaxiriddin Muhammad Boburning rasmlar chizish boʻyicha rasmlar tanlovi oʻtkazildi.

Oʻrta guruh tarbiyalanuvchilari raqs namoyish etib, bayram ishtirokchilarining dilini hushnud qildilar.

Gʻolib boʻlgan tarbiyalanuvchilarga MTT maʼmuriyati va homiylar tomonidan esdalik sovgʻalar va fahriy yorliqlar topshirildi.

MTTda 2026-yil 1-mart kuni “Zulfiyaxonim vafo va sadoqat kuychisi” mavzusida shoira Zulfiyaning 111 yilligiga bagʻishlab, bir qator tadbirlar tashkillandi.

MTTga tayyorlov guruhi qizlari oʻrtasida “Zulfiyaxonim izdoshlari” tadbiri boʻlib oʻtdi. Tarbiyalanuvchi qizlar shoira ijodidan parchalar keltirishib, kuy va raqslari bilan tadbir ishtirokchilarida katta taassurot qoldidilar.

Katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari oʻrtasida sportning shashka turidan musobaqa oʻtkazildi. Unda 80 nafar tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar.

Gʻolib tarbiyalanuvchilar MTT maʼmuriyati tomonidan taqdirlandilar.

O‘tkazilgan **tadbirlar tarbiyalanuvchi yoshlarni ibo-hayo, vafo va sadoqat**, ma’naviy jasorat xissi ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

MTTda **2025-yil 7-mart kuni “8-mart Xalqaro xotin-qizlar kuni” munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.**

Tadbirda tarbiyalanuvchilarning onalari va MFY faollari, faxriy ustozlar taklif etildi. Bayram tadbirini MTT rahbari ochib, MTT xodimlar va tarbiyalanuvchilarni bayram bilan tabrikladi.

“Ayol borki-olam munavvar” shiori ostida tadbir tashkillandi.

Katta va MTTga tayyorlov guruhlar o‘rtasida “Balli qizlar” tanlovi tashkillandi.

Bayram tadbir qatnashchilarida Prezidentimizning onalarga, ayollarga alohida yuksak e’tibor ko‘rsatayotganligi, yoshlarni Vatanga muhabbat va sadoqat rug‘ida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini oshirish, milliy urf-odat, an’ana va qadriyatlarlarning hayotimizdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish, ular qalbida onalarga mehr-muhabbatni shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qildi.

MTTda “Navro‘z” umumxalq bayramini tarannum etuvchi shiorlar bilan bezatilib, bayroqlar va bayramni eslatuvchi rasmlı plakatlar osildi.

18 mart kuni soat 13:00 da MTTda “Xush kelding Navro‘zi olam” mavzusida katta bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda MFY hodimlari, fahriy ustozlar, ota – onalar hamda MTTning hodimlari va tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar. MTTning maktabgacha tayyolov guruhları jonli burchaklar tashkil etib o‘zlarining tabiat shaydosi ekanliklarini namoyish etishdi.

Tadbirga MTTning katta va MTTga tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari tayyorgarlik ko‘rib, o‘zlarining Navro‘z bayramini madh etuvchi kuy-qo‘shiqlari, she‘rlari va boy tarixiy ma‘lumotlari bilan barchani xushnud etdilar. O‘rta guruhning jajji qizaloqlari ijro etgan quvnoq raqslari bilan tadbirga yanada ko‘tarinki kayfiyat baxsh etdi.

Bundan tashqari o‘rta, katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari tayyorlagan ko‘ngilochar xajviya she‘rlari, o‘yin-kulgulari bilan tarbiyalanuvchilarga bayram tuxfasi ulashildi.

Tadbir yong‘in xavfsizligi va texnika xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda MTT xovlisida o‘tkazildi

MTT faollar zali bayramona bezatilgan. Sharlar, gullar ilingan. Davra to‘rida bobomizning portireti, bukletlar, uning o‘gitlardan namunalar qo‘yilgan. Bayram tadbirini o‘tkazishni rejalashtirgan guruh tarbiyachilari tadbirni o‘tkazish uchun, yaxshi tayyorlangan.

MTTda 9 aprel kuni bobomiz Amir Temur tavalludining

690 yilligiga bag‘ishlanib bayram dasturi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirga MTT xodimlar, faxriy ustozlar va tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar.

Bayramda tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari o‘zlarining chiqishlari bilan ishtirok etdilar.

Tadbirni MTT katta guruh tarbiyachisi ochib berdi va tabrik uchun so‘z navbatini MTT rahbariga berdi. U o‘z so‘zida barchani tabriklash bilan birga, bobomiz Amir Temur hayoti to‘g‘risida qisqacha to‘xtalib o‘tdi.

Shundan so‘ng, MTT etakchisi, tadbir ishtirokchilarni taklif etdi.

Ular dastlab Amir Temur haqida she‘rlar aytdilar.

Tadbir ishtirokchisi chiqib, bobomiz hayoti haqida gapirib berdi.

Ishtirokchilar bobomiz Amir Temur o‘gitlaridan namunalar keltirishdi.

Sahna ko‘rinish orqali bobomizning yurt uchun ko‘rsatgan qaxramonliklarini namoyon qilib berdilar.

Tadbirda chiroyli raqslar ham namoyish etildi. Bu tadbir ko‘tarinki ruhda o‘tkazildi. So‘ngra tadbir ishtirokchilari MTT ma‘muriyati tomonidan esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Tadbirdan so‘ng barchaga Amir Temur haqidagi video film namoyish etildi.

Shu kuni barcha guruhlarda bobomiz o‘gitlaridan tarbiyalanuvchilarga aytib, mana shu o‘gitlarga amal qilishlari haqida tushunchalar berildi.

2026-yil 8-may kuni soat 10:00 da MTTda “Xotira va qadrlash kuni”ga faxriy tarbiyachilar xotirasiga bag‘ishlab tadbir o‘tkazildi.

Tadbirda qishloqdagi faxriy tarbiyachilar, mexnat faxriylari va faollari, baynalminalchi jangchilar taklif etildilar.

Tadbirda MTTning jamoasi va tarbiyalanuvchilar ishtirok etdilar. Yig‘ilishni MTT direktori ochib, 9-may “Xotira va qadrlash kuni” to‘g‘risida ma‘ruza qildi. Shundan so‘ng u so‘zni tadbir mexmonlariga berdi. Mehmonlar so‘zga chiqib o‘zlarining xayot yo‘llari haqida, xayotiy tajribalari, kechinmalari haqida tarbiyalanuvchilarga so‘zlab berdilar. Tarbiyalanuvchilar o‘zlarini qiziqtirgan savollar yuzasidan mexmonlarga savol berdilar. Faxriy o‘qituvchilar esa avvalgi ta’lim bilan hozirgi ta’lim o‘rtasidagi tafovvt haqida alohida to‘xtalishib hozirgi yoshlarga yaratilayotgan sharoitlarni ko‘rib zamonga shukuronalar keltirishdi. Hamda tarbiyalanuvchilarni ta’lim –tarbiyali bo‘lishga, kelajakda a’lo baxolarga o‘qib yurtimiz tayanchi bo‘lishga chaqirdilar.

O‘tganlar xotirasi esa bir daqiqalik sukut saqlash orqali yod olindi. Hayr bog‘cham-Salom MTT tadbiri o‘tkazildi.

Tadbirda MTT jamoasi, tarbiyalanuvchilar va Tayyorlov guruh

ota-onalari ishtirok etdilar.

Markaziy devorga “Xayr bog‘cham, bog‘cham” yozuvlari aks ettirilgan. Atroflariga gullar qo‘yilgan. Bolalar sahnaga qo‘llarida gul va bayroqchalar bilan kirib keladilar

So‘ng “ O‘zbekiston Davlat Madhiyasini tingladilar

Bayramni MTT direktori ochib berdi. U O‘z so‘zida Hurmatli ota - onalar va mehmonlar, bog‘cha xodimlariyu, jajji ukajonlar, qalbi qaynoq murabbiyalar! Mana, bugun biz, MTTga ketish oldidan xayrlashish kechasiga yig‘ilganmiz. Bugungi bayram bizning yodimizdan chiqmaydi deb o‘z so‘zini yakunladi.

Shundan so‘ng Bolalar “ MTT nimani o‘rgatadi “ qo‘shig‘ini ijro etib beradilar.

Tarbiyalanuvchi qizlar “ Atirgul “ raqsini ijro etib beradilar.

MTTga tayyorlov guruhi bolalari bog‘cha ma’muriyatining maqtoov yorliqlari va Esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar .

Bayram dasturi “ Ommaviy raqs “ bilan yakuniga yetdi . MTTda **“1-iyun Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”** munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkillandi. MTT zali bayramona bezatildi. Musiqa, tasviriy faoliyat, nutq o‘stirish va sport tadbirga atab turli xil faoliyatlar o‘tkazildi. “Bolalar kulgusi bilan olam munavvar” mavzusida ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkillandi. Tadbirda o‘quvchilar Vatan, istiqloq, baxtli bolalik haqida she’r va qo‘shiqlar, “Dunyo bolalari mening nigohimda” mavzusida asfaltga rasm chizishdi. “Farzandlari qudratli yurt-sog‘lom bo‘lur” mavzusida sport musobaqalari tashkillandi.

G‘olib bo‘lgan tarbiyalanuvchilar esdalik sovg‘alar va “Faxriy yorliq” bilan taqdirlandilar.

MTTda tarbiyalanayotgan kam ta’minlangan oila farzandlarining 4 nafari bayram munosabati bilan sovg‘alar bilan taqdirlandilar.

Ertalabki qabulda ota-onalar bilan suhbatlashish, ularni qiziqtirgan savollarga javob berib borildi. Yuqumli kasalliklarning oldini olishga qaratilgan madaniy-gigiyenik ko‘nikmalarni oshirish uchun ota-onalarning hamkorlik ishlarini takomillashtirildi

MTT hududiga qarashli 3-7 yoshli bolalar ro'yxatini tuzish, qamrab olinmagan bolalarni MTTga jalb etish bo'yicha ishlarni amalga oshirildi. Tashkilotda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari haqida ota-onalar bilan suhbatlar olib borildi. Bolalarda uchraydigan psixologik holatlar haqida tushuntirishlar berildi. Tashkilotda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari haqida ota-onalar bilan suhbatlar olib borildi. Ota-onalar bilan bolalarda uchraydigan kamqonlik kasalligi va uning oldini olish yuzasidan suhbatlar olib borildi. Tashkilotda ochiq eshiklar kuni tashkil qilinib unga ota-onalarni jalb qilindi.

Tashkilotda ____ ta guruh bo'lib barcha guruh xonalarida rivojlantiruvchi o'yin markazlari tashkil etildi ushbu markazlari tashkil etildi. Har bir markaz kerakli jihozlar va resurslar bilan boyitildi. Tarbiyalanuvchilarning markazlarda ishlashlari uchun barcha qulay sharoitlar yaratilgan. MTT da tarbiyalanuvchilarga ta'lim – tarbiya berilishida rivojlantiruvchi markazlarga ota-onalar ham taklif etib borildi. Tashkilotda yillik ish-reja asosida pedagogik kengashlar, Kuzatuv kengashlari, umumiy va direktor huzuridagi boshqa yig'ilishlar va navbatdan tashqari yig'ilishlar xam o'z navbatida o'tkazib borildi va yig'ilish bayonnomalari tayyorlanib, yig'ma jildlar tashkil etildi. Barcha guruhlarda faoliyatlar rivojlantiruvchi markazlarda va umumiy faoliyat shaklida olib borildi. Davlat talablari bo'yicha rivojlanishlari tahlil qilindi va ularning rivojlanish xaritalari pedagoglar tomonidan yuritib borildi.

Har kuni hamshira ertalabki qabulda bolalarni salomatliklarini ko'zdan kechirib, tarbiyachilar xamkorligida ota-onalardan bolalarini qabul qilib, ular bilan suhbatlar olib bordi. Hamshira tomonidan bolalarni rivojlanishlarini aniqlab borish maqsadida antropometrik o'lchovlari xar ikki oyda aniqlanib borildi. Xamkorlik ishlari xam tarbiyachilar va hamshira tomonidan muntazam ota-onalar uchun tashkillandi. Bunda bolalar o'rtasida uchrab turadigan xar xil yuqumli kasalliklar va ularni oldini olish yo'llari to'g'risida davra suhbatlari, “ Tozalik-salomatlik garovi”, “Sog' tanda – sog'lom aql”, “ Sog'lom turmush tarzini targ'ib etaylik”, “Sog'lom ovqatlanish-umr foydasi” mavzularida qiziqarli tadbirlar olib borildi.